



“ABU NASR FOROBIY FALSAFASIDA KOMIL INSON G‘OYASI”

TDU “Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi o‘qituvchisi‘

Xabibullayev Shaxzod Abdugaffarovich

Tel: +998(97)495-54-99,

@-mail: Khabibullaevshaxzod@gmail.com

TDU Metallurgiya kafedrasi talabasi:

Bobonazarova Marjona Bobonazar qizi

Tel: +998(93)125-07-24,

@-mail: bobonazarovamarjona2407@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada Abu Nasr Forobiyning komil inson haqidagi qarashlari yoritilgan. Forobiy komil insonni bilimli, odobli va halol bo‘lgan shaxs deb tushuntiradi. Maqolada insonning aqliy va axloqiy jihatdan kamol topishi jamiyat uchun qanchalik muhim ekani ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *Abu Nasr Forobiy, komil inson, fazilat, aql, ilm, tarbiya, baxt, ideal inson, fozil ja‘miyat, falsafa, ma‘naviyat, axloq, ijtimoiy taraqqiyot.*

Annotatsiya: This article discusses Abu Nasr Al-Farabi's views on the perfect person. Al-Farabi defines the perfect person as someone who is knowledgeable, polite, and honest. The article shows how important it is for society for a person to develop intellectually and morally.

Key words: *Abu Nasr Al-Farabi, perfect person, virtue, intelligence, knowledge, education, happiness, ideal person, virtuous society, philosophy, spirituality, morality, social development.*

Annotatsiya: В этой статье рассматриваются взгляды Абу Насра аль-Фараби об идеальном человеке. Аль-Фараби определяет идеального человека как знающего, вежливого и честного. В статье показано, насколько важно для общества интеллектуальное и нравственное развитие человека



Ключевые слова: Абу Наср аль-Фараби, совершенный человек, добродетель, интеллект, знание, образование, счастье, идеальный человек, добродетельное общество, философия, духовность, мораль, социальное развитие.

Har bir davrda inson o'z hayoti va jamiyatdagi o'zni haqida o'ylagan. Odamlar qadimdan "Qanday yashash kerak?", "Yaxshi inson kim?", "Baxt nimada?" kabi savollarga javob izlab kelgan. Chunki inson faqat yashash bilan emas, balki qanday yashayotgani bilan ham baholanadi. Shuning uchun har bir davrda mukammal, yetuk, fazilatli inson haqidagi tasavvurlar paydo bo'lgan. Ilm- fan, madaniyat va tafakkur rivojlangani sari bu tushunchalar ham ortib borgan. Ba'zi davrlarda komil inson kuchli va jasur deb qaralgan bo'lsa, boshqa davrlarda u bilimli, adolatli va axloqli bo'lishi bilan qadrlangan. Sharq mutafakkirlari esa komil insonni nafaqat o'z manfaatini, balki jamiyat manfaatini ham o'ylaydigan shaxs sifatida ko'rgan.

Falsafa fani inson, uning hayoti va jamiyatdagi o'zini o'rganadigan eng qadimiy va muhim fanlardan biridir. Inson qanday yashash kerak? U qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak? Qaysi yo'l uni yetuklikka olib boradi? degan savollar har bir davrda dolzarb bo'lib kelgan. Bu masalalar Sharq mutafakkirlari asarlarida ham keng yoritilgan. Ana shunday buyuk allomalardan biri Abu Nasr Forobiydir.

Abu Nasr Forobiy Sharq falsafasining yirik namoyondasi bo'lib u nafaqat falsafa, balki mantiq, siyosat, axloq va ilm-fanning boshqa sohalarida ham chuqur bilimga ega bo'lgan. Uning asarlarida inson kamoloti, axloqiy yetuklik va adolatli jamiyat masalalari muhim o'rin egallaydi. Forobiy falsafasining markazida komil inson tushunchasi turadi. Unga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti komil insonlarning tarbiyasiga bevosita bog'liqdir. Mazkur maqolada Abu Nasr Forobiyning komil inson haqidagi falsafiy qarashlari, ushbu tushunchaning mazmuni va bugungi jamiyat uchun ahamiyati tahlil qilinadi. Asarlarda Forobiy komil insonni nafaqat shaxsiy mukammallik, balki jamiyatning uyg'unligi nuqtai



nazardan ko‘radi . Zamonaviy tadqiqotchilar esa uning g‘oyalarini demokratik va axloqiy qarashlar bilan bog‘laydilar.

Abu Nasr Forobiyning hayoti va ilmiy me‘rosi.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad Forobiy 870- yilda Farob shahrida tug‘ilgan. U yoshligidan ilmga qiziqib, turli fanlarni chuqur o‘rgangan . Farobiy Bag‘dod , Damashq va boshqa ilm markazlarida yashab, mashhur olimlardan ta‘lim olgan . U Aristotel asarlarini sharhlagani uchun “Muallimus-soniy” (Ikkinchi muallim) nomini olgan.

Olim o‘zining ilmiy me‘rosida falsafa , mantiq , axloq , siyosatshunoslik va musiqaga oid ko‘plab asarlar yaratgan. “ Fozil odamlar shahri”, “Baxtga erishish yo‘llari”, “Aql ma‘nolari haqida” kabi asarlarida u jamiyat va inson kamoloti masalalarini chuqur tahlil qilgan.

Forobiy falsafasida komil inson tushunchasi.

Forobiy falsafasida komil inson - bu nafaqat bilimli, balki yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxsdir . Unga ko‘ra, insonning komilligi faqat moddiy boylik yoki mansab bilan o‘lchanmaydi . Asl komillik- aql, bilim va axloqning uyg‘unligidadir.

Forobiyning ta‘kidlashicha , komil inson quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- ✓ ilmga chanqoqlik
- ✓ to‘g‘ri fikrlash qobiliyati
- ✓ adolat va halollik
- ✓ sabr-toqat va kamtarlik
- ✓ jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish.

U insonning kamoloti uzluksiz jarayon ekanligini ta‘kidlaydi . Ya‘ni , inson doim o‘z ustida ishlashi, bilimini oshirishi va axloqini poklab borishi lozim.

Komil insonni shakllantirishda ilm va axloqning o‘rni.



Forobiy ilmni inson kamolotining eng muhim omili deb biladi. Uning fikricha, ilm insonni jaholatdan qutqaradi va uni haqiqatga yetaklaydi. Biroq faqat ilmning o'zi yetarli emas. Agar ilm axloq bilan uyg'unlashmasa, u jamiyat uchun zararli bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun Forobiy axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi. Komil inson ilimli bo'lishi bilan birga, vijdonli, adolatli va mehribon bo'lishi kerak. U boshqalarga foyda keltirishni hayotining asosiy maqsadi deb biladi.

Mutafakkirimiz komil insonni tarbiyalashda oila, ta'lim va jamiyatning o'rnini ham muhim deb hisoblaydi. To'g'ri muhitda tarbiya topgan inson jamiyatning taraqqiyotiga hissa qo'sha oladi.

Komil inson va fozil jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik.

Abu Nasr Forobiy komil inson tushunchasini jamiyatdan ajratib ko'rmaydi. Uning fikricha, komil insonlar yashaydigan jamiyatgina haqiqiy fozil jamiyat bo'la oladi. Fozil jamiyat - bu adolat, ilm va axloq ustuvor bo'lgan jamiyatdir. Bunday jamiyatda har bir inson o'z qobiliyatiga yarasha faoliyat yuritadi va umumiy manfaat yo'lida xizmat qiladi. Forobiy ta'kidlashicha, jamiyat boshqaruvida turgan shaxslar ayniqsa komil inson sifatlariga ega bo'lishi lozim. Chunki rahbarning axloqi va bilimi butun jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar rahbar adolatli va dono bo'lsa, jamiyatda tartib va barqarorlik ta'minlanadi. Bugungi kunda ham ushbu dolzarb bo'lib, jamiyatni rivojlantirishda ma'naviy yetuk shaxslarning o'рни beqiyosdir.

Forobiy g'oyalarining bugungi jamiyat uchun ahamiyati.

Komil inson g'oyasining yoshlar tarbiyasida ahamiyati Forobiyning komil inson haqidagi qarashlari yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ham Forobiyning komil inson haqidagi qarashlari o'z ahamiatini yo'qotmagan. Yoshlar bilimli bo'lishi bilan birga, yuksak axloqiy fazilatlarni ham o'zida mujassam etishi lozim. Zamonaviy jamiyatda ilimli, mustaqil fikrlaydigan va axloqan yetuk insonlarga ehtiyoj katta. Yosh avlodni ana shunday insonlar etib tarbiyalashda Forobiy merosi muhim manba bo'lib xizmat



qiladi . Forobiy yoshlarni ilmga intilishga , mustaqil fikrlashga va jamiyat oldidagi mas'uliyatni his etishga chorlaydi . U ilgari surgan g'oyalar bugungi ta'lim tizimi , ma'naviy tarbiya va jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq . Bugungi globallashuv davrida yoshlar turli axborotlar ta'siriga tushib qolmoqda. Shunday sharoitda, Forobiy deyarli 1000 yil ilgari surgan axloqiy qadriyatlar, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlashda muhim manba bo'lib xizmat qilib qolmoqda. Forobiyning komil inson g'oyasi haqidagi qarashlari yoshlarni ilmga , insonparvarlikka , vatarparvarlikka , halollikka va adolatga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Nasr Forobiy falsafasida komil inson g'oyasi asosiy o'rinni egallaydi. Forobiy komil insonni faqat boylik yoki mansab bilan emas, balki ilmi , axloqli va jamiyat manfaatini o'ylaydigan shaxs sifatida tasvirlaydi .

Forobiy fikricha, jamiyatning rivojlanishi ham aynan shunday insonlarning tarbiyasiga bog'liq. Agar insonlar bilimli, halol va mas'uliyatli bo'lsa , jamiyat ham tinch va taraqqiy etgan bo'ladi. Shuning uchun u ilm olish, axloqni tarbiyalash va ezgulikni ulug'lashni eng muhim vazifa deb bilgan. Forobiy merosi yosh avloqni bilimli, axloqli, vataniga nafi tegadigan barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u insoniyat ma'naviy taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan buyuk mutafakkir sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Forobiy A. N. Fozil shahar ahlining qarashlari . – Toshkent: Fan, 2004.
2. Forobiy A. N. Baxtga erishish yo'llari . – Toshkent: O'zbekiston, 2003.
3. Forobiy A. N. Aql ma'nolari haqida . – Toshkent: Fan, 2002.
4. Karimov I . A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch . – Toshkent: Ma'naviyat,2008.
5. Qodirov M. Sharq falsafasi tarixi .- Toshkent: O'qituvchi,2010.
6. Ergashev A. ; Otamurodov S. Falsafa . O'quv qo'llanma . – Toshkent: O'zbekiston , 2018.
7. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyat asoslari . –Toshkent : Ma'naviyat, 2015.